

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA AYOL PEDAGOGNING MAHORATI

Andijon davlat pedagogika instituti

MG'MAHT kafedrasi stajyor- o'qituvchisi

Jabborova Sayyora Muhammadkobilovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim

yo'nalishi talabasi

Sayfitdinova Zuxraxon

Razoqova Moxinur

sayfitdinovazuxraxon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mutolaa madaniyatini yuksaltirishda ayol pedagoglarning kasbiy mahorati, emotsional intellekti va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada kitobxonlikni shakllantirishning psixologik asoslari, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unligi olimlarning qarashlari va amaliy tavsiyalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, ayol pedagog, boshlang'ich ta'lim, ma'naviy tarbiya, innovatsion metodlar.

Yangi O'zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini qurish jarayonida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodni intellektual salohiyatli etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Kitob o'qigan insonning dunyoqarashi keng, ma'naviyati boy bo'ladi. Kitobxonlikni targ'ib qilish — kelajakni qurish demakdir". Rostan ham, bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan asrda yosh avlodni ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va bilimli qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir. "Kitob — barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu-donishning asosi, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir",— Abu Rayhon Beruniy.

Boshlang'ich sinf davri inson shaxsiyatining poydevori qo'yiladigan davr bo'lib, bu bosqichda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bevosita pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda faoliyat yuritayotgan ayol pedagoglar o'zlarining tabiatiga xos bo'lgan noziklik, mehribonlik va sabr-toqat fazilatlarini bilan bolani kitob olamiga olib kiruvchi ilk "ma'naviy yo'l boshchi" vazifasini bajaradilar. Ayol o'qituvchining dars o'tish

uslubi, uning nutq boyligi va o'quvchi bilan o'rnatadigan emotsional aloqasi kitobxonlikning psixologik asosini tashkil etadi.

Pedagogikaning fundamental asoslariga nazar tashlasak, buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiya jarayonida "fikriy tarbiya"ni birinchi o'ringa qo'ygan va bu tarbiya, aynan, kitob mutolaasi orqali shakllanishini uqtirgan. Avloniy: "Fikr qanchalik keng bo'lsa, inson shunchalik baxtli bo'ladi" deb yozganida, kitobxonlikning inson baxtidagi o'rnini ko'rsatib bergan. Zamonaviy o'zbek pedagog-olimlaridan S.Matchonov boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lim darslarida o'quvchining badiiy idrokini rivojlantirish pedagogning mahoratiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisi asarni "sezgi organlari" orqali qabul qiladi. Shu sababli ayol pedagogning ovozi, yuz ifodalari va asarni tushuntirishdagi o'ziga xosligi bolada kitobxonlikning "psixologik ishtiyoqi"ni uyg'otadi. G'arb psixologi Daniel Goleman tomonidan ilgari surilgan "Emotsional intellekt" nazariyasi shuni ko'rsatadiki, ayol pedagoglar o'quvchining ichki kechinmalarini tezroq payqaydilar. Taniqli o'zbek olimasi R.Safarova ta'kidlaganidek, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi "samimiy va mehrga yo'g'rilgan muloqot" kitobxonlik darajasini va o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kitobxonlik madaniyati — bu shunchaki matnni o'qish emas, balki uni tushunish, tahlil qilish, undan ma'naviy ozuqa olish va hayotga tatbiq etish san'atidir. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda (6-10 yosh) tasavvur kuchi juda kuchli bo'ladi. Ayol pedagog o'zining mahorati bilan quruq mutolaani qiziqarli sarguzashtga aylantira olishi kerak. Kitobxonlik madaniyati quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

1. Qiziqish uyg'otish: Kitobning tashqi ko'rinishi, rasmlari va muqovasi orqali.

2. Idrok etish: Matn mazmunini his qilish.

3. Tahlil: Qahramonlarning yaxshi va yomon tomonlarini ajratish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mutolaa jarayoni murakkab mehnat hisoblanadi. Ayol pedagogning mahorati ana shu mehnatni qiziqarli mashg'ulotga aylantira olishida ko'rinadi. Chunki ayol o'qituvchi bolaga ona kabi yaqin bo'la oladi. Bu yaqinlik o'quvchining kitobga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Ayol pedagogning mahorati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Nutq madaniyati va ifodali o'qish.

O'qituvchi asarni shunday o'qib berishi kerakki, bola ko'z oldida o'sha voqealar jonlansin. Ovoz ohangining o'zgarishi, pauzalar va emotsional bo'yoqdorlik bolani sehraib qo'yadi. "Bolaga kitob o'qib berish — uning qalbiga kiradigan eng qisqa yo'ldir."

2. Empatiya va tushunish.

Ayol pedagog har bir bolaning xarakteriga qarab kitob tavsiya etadi. Masalan, tortinchoq bolaga jasur qahramonlar haqidagi ertaklarni, shoʻx bolaga esa odob-axloq haqidagi hikoyalarni mahorat bilan yetkazadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytsak, oʻqituvchi dars jarayonida badiiy matn bilan ishlashda nafaqat metodik, balki aktyorlik mahoratini ham ishga solishi lozim ekan. Masalan, matnni rollarga boʻlib oʻqish jarayonida oʻqituvchining oʻzi ham faol ishtirok etishi, qahramonlar xarakterini ovoz tebranishlari orqali koʻrsatib berishi bolalarda mutolaaga nisbatan "estetik zavq" uygʻotadi. Shuningdek, oʻqituvchining shaxsiy kitobxonlik tajribasi ham muhim. Oʻzi koʻp kitob oʻqiydigan oʻqituvchigina oʻquvchiga chinakam oʻrnak boʻla oladi. Olim Q.Yoʻldoshev taʼkidlaganidek, yangi pedagogik tafakkur asosida dars oʻtish — bu oʻquvchini fikrlashga majburlash emas, balki uni fikrlashga qiziqitirishdir. Ayol pedagog oʻzining tarbiyaviy suhbatlarida oʻzbek adabiyoti durdonalaridan, ayniqsa, Said Ahmad, Oʻtkir Hoshimov va Shuhrat kabi adiblarning asarlaridan namunalar keltirib, ulardagi odamiylik, ona mehri va sadoqat mavzularini bolalar tiliga soddalashtirib yetkazishi lozim.

Andijon davlat pedagogika instituti va boshqa pedagogik oliygohlarda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ayol oʻqituvchi rahbarlik qiladigan sinflarda "kitobxonlik soatlari" va "mutolaa tanlovlari" oʻquvchilarning ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, oʻqituvchining ota-onalar, xususan, onalar bilan hamkorlikda olib boradigan "Oila va kitobxonlik" loyihalari bolaning uyida ham mutolaa muhitini yaratishga xizmat qiladi. M.Jumaniyozova tadqiqotlariga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchisi vizual va emotsional obrazlarga tayanadi, shuning uchun ayol pedagog dars jarayonini turli koʻrgazmalar va badiiy lavhalar bilan boyitishi kerak. Bu jarayonda ayol oʻqituvchining kiyinish odobi, gapirish ohangi va bolaga boʻlgan munosabati "pedagogik takt" tushunchasiga toʻliq mos kelishi lozim. Zero, bola oʻqituvchisiga havas qilsagina, uning tavsiya qilgan kitoblarini ishtiyoq bilan oʻqiydi. H.Gʻulomova taklif etgan nutq oʻstirish metodikalarida ham aynan badiiy matnlarning oʻquvchi nutqini boyitishdagi oʻrni yuksak baholanadi. Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish — bu millatning maʼnaviy genofondini asrab qolish demakdir. Ayol pedagogning kasbiy mahorati bolaning qalbida ezgulik, goʻzallik va bilimga boʻlgan cheksiz muhabbat urugʻini ekadi. Mahoratli oʻqituvchi nafaqat darslikdagi matnni oʻqitadi, balki kitob orqali bolani fikrlashga, hayotni anglashga va oʻzligini tanishga oʻrgatadi. Bu jarayonda milliy qadriyatlarimizga tayanib, oʻzbek tili va adabiyotining boy xazinasidan unumli foydalanish ayol pedagogning asosiy qurolidir. Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki,

kitobxon o'quvchi tarbiyalashda o'qituvchining kasbiy mahorati, uning darsga kreativ yondashuvi va o'quvchiga bo'lgan cheksiz mehri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ham nomdor stipendiyalarga da'vogar bo'lgan talabalar va bo'lajak pedagoglar o'z ustida tinimsiz ishlashlari, nafaqat pedagogik bilimlarni, balki badiiy adabiyotlarni ham chuqur o'zlashtirishlari lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T: "O'zbekiston", 2021. Bet:156.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T: "O'qituvchi", 1912 (1992-yil nashri). Bet: 45.
3. Matchonov S. Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lim metodikasi. T: 2015. Bet: 88.
4. Safarova R. Boshlang'ich ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari. T: 2014. Bet: 112.
5. Yo'ldoshev Q. Yangi pedagogik tafakkur asoslari. T: 2010. Bet: 67.
7. Jumaniyozova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish. T: 2018. Bet: 94.
8. G'ulomova H. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish. T:2012. Bet: 40.